O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASIDA INGLIZ TILI FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI FANIDAN PEDAGOG KADRLARNING KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotida Ingliz tili fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qarori.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 25-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovidan o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 81-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Ingliz tili fani o‘qituvchilari uchun malaka sinovida jami 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i test savollari topshirig‘i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 90 daqiqa (mutaxassislik fani hamda pedagogik mahorat) vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. INGLIZ TILI		**40 ta**
1. Tilning amaliy qo‘llanilishi (1 - 40 savollar)		
Fonetika	- minimal juftliklar (minimal pairs) orqali ma’no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish (masalan: ship/sheep, bad/bed); - ikki va undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarda asosiy urg‘u (primary stress) tushadigan bo‘g‘inni aniqlash; - gapning mazmuniga qarab mantiqiy urg‘u (sentence stress) qaysi so‘zga tushishini belgilash; - transkripsiyasiga ya’ni talaffuziga qarab so’zlarni tanlash.	4
Grammatika	- grammatik strukturaning nomini va qo‘llanilish o‘rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - berilgan gap yoki jumlani grammatik transformatsiya qilish (o‘zgartirish); - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to‘g‘ri o‘zgartirilgan variantini aniqlash; - o‘xshash grammatik shakllardan ma’noga eng mosini tanlash.	13

Leksika	- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma’nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - so‘z yasalishi qoidalari asosida berilgan konstekstga mos so‘z yasash; - ma’nosi yaqin bo‘lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: say / tell / speak / talk).	12
Pragmatika	- berilgan vaziyatga mos og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma’nosini anglash (literal meaning (to‘liq ma’no), irrelevant interpretation, opposite meaning, exaggerated meaning); - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish. - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (random statement, off-topic comment, irrelevant fact, confusing remark); - berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (making suggestion instead of request, giving unrelated information, expressing opinion instead of asking, ignoring speaker’s intent); - xohish yoki niyatni farqlash (giving direct order, expressing anger, asking irrelevant question, making a statement unrelated to intent).	6
2. O‘qib tushunish (36 - 40 savollar)		

O‘qib tushunish	- matnning asosiy g‘oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilmagan ma’lumotlar, fikrlar, g‘oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - matn qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).	5

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

Mazmun soha	**Baholanadigan konstruktlar**	**Test soni**
I. PEDAGOGIK MAHORAT		**10 ta**
1.1. Pedagogik-psixologik kompetensiyalar	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o‘zaro munosabatlar) mazmunini, model–loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig‘i va bosqichlarini, ta’lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo‘llay olishi	4
1.2. Bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash	– “Ilk qadam” dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va	3

	tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; – bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish,tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Testdagi ulushi
1	**Bilish va tushunish**	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	22
2	**Qo‘llash**	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	23
3	**Mulohaza qilish**	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5

IV. Baholash mezoni

Test topshiruvchining natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javobga 2 ball, noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Swan, M. (2017). *Practical English usage* (4th ed.). Oxford University Press.
2. Hewings, M. (2023). *Advanced grammar in use* (4th ed.). Cambridge University Press.
3. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2010). *English vocabulary in use: Intermediate* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2017). *English collocations in use: Intermediate* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Clark, B. (2021). *Pragmatics: The basics* (2nd ed.). Routledge.
6. Peters, P. (2004). *The Cambridge guide to English usage*. Cambridge University Press.

VII. Pedagogik mahorat yo'nalishiga oid manbalar

1. Alixodjayeva G.S. Инновация в дошкольном образовании. Учебник. – Toshkent, 2024. – C. 284.
2. Muslimov N. va boshq., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2024. – 120 b.
3. Qodirova F. va boshq., Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. - 688 b.
4. Xalikova U.M., Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022.-216 b.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. - 504

Eslatma: *test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan. Zaruratga ko'ra ushbu spetsifikatsiyaga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*